

SHE'RIY MATNLARDA UNDALMANING QO'LLANILISHI

Yusupova Orziboni Sunnatovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti dotsenti

Alimova Dilnoza Komil qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Badiiy asarda poetik individuallikni ta'minlashda, ijodkor maqsadini ochib berishda, emotsional-ekspressivlikni oshirishda barcha til birliklari, jumladan, undalma ham faol ishtirok etadi. Maqolada undalmaning she'riy matnlarda qo'llanilish xususiyatlari misollar asosida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *individual uslub, lingvopoetika, undalma, emotsional-ekspressivlik, she'riy matn, ritorik murojaat, apostrofa.*

Annotation: *In a literary work, all linguistic units, including forms of address, actively participate in ensuring poetic individuality, revealing the author's intention, and increasing emotional expressiveness. The article analyzes the features of the use of forms of address in poetic texts based on examples.*

Key words: *individual style, linguopoetics, form of address, emotional expressiveness, poetic text, rhetorical address, apostrophe.*

Аннотация: *В художественном произведении все языковые единицы, в том числе обращение, активно участвуют в обеспечении поэтической индивидуальности, раскрытии авторского замысла и усилении эмоционально-экспрессивности. В статье на основе примеров проанализированы особенности употребления обращения в поэтических текстах.*

Ключевые слова: *индивидуальный стиль, лингвопоэтика, обращение, эмоционально-экспрессивность, поэтический текст, риторическое обращение, апострофа.*

Hozirgi zamon she'riyatida undalma faol qo'llaniladigan til birliklaridan sanaladi. Chunki lirik qahramon his-tuyg'ularini kimgadir aytmoqchi bo'ladi, kimgadir murojaat etadi. Yoki shu kechinmaning sodir bo'lishiga sabab bo'lgan narsa-hodisaga, jarayonga murojaat etadi, sababchi bo'lgan kishi (Allohga, yorga, do'stga va hk)ga xitob qiladi. Shuning uchun she'riyatda his-tuyg'u bilan bog'liq murojaat shakllari faol va ular asar poetikasi uchun xizmat qiladi. Badiiy matnda qo'llanilgan undalmalar badiiy undalma sanalib, ritorik murojaatni hosil qiladi. Lug'atlarda bu haqida quyidagi fikrlar keltiriladi: "Ritorik murojaat – badiiy undalma. Ritorik so'roq javob talab qilmagani kabi, ritorik murojaat ham mos

reaksiyani talab qilmaydi, nutqni bezash, muayyan kayfiyat yo hissiy munosabatni ifodalash vositasi bo'libgina xizmat qiladi. Ritorik murojaat she'riy nutqda, ayniqsa, keng qo'llanilib, ko'proq narsa-hodisa, joy kabilarga qaratiladi. Shuningdek, o'zi hozir bo'lmagan odamga shu yerda kabi murojaat qilish ham ritorik murojaatning bir ko'rinishidir. Bulardan ritorik murojaat apostrofa termini bilan sinonimik munosabatda ekani ayon bo'ladi¹³⁷. Tilshunoslar, uslubshunoslarning qarashlarida ham ritorik murojaat (ayrim adabiyotlarda ritorik undov deb ham yuritiladi) asosida shakllangan gaplar badiiy uslubda emotsionallik nuqtayi nazaridan ma'lum qimmatga ega. Shu sababdan ham bu usul emotsional sintaksisning eng keng tarqalgan turlari sifatida qaraladi¹³⁸. Manbalarda ritorik so'roqda bo'lgani kabi ritorik murojaatda ham baholash momenti mavjudligi, badiiy undalma o'ziga xos ohang bilan talaffuz qilinishi, bu usul, ayniqsa, poetik asarlarda qo'l kelishi qayd etiladi.

Apostrofa she'riyatda keng qo'llaniladigan usul bo'lib, adabiyotshunoslik lug'atida quyidagicha fikrlar keltirilgan: "Apostrofa (yunoncha apostrophe – bir tomon og'ish) – narsa yoki hodisaga xuddi jonli mavjudotga kabi murojaat etish asosida yuzaga keluvchi stilistik figura"¹³⁹. Bunday usuldan shoirlarimiz keng foydalanishadi va hatto adabiyotimizda boshdan oxirigacha shu usul asosiga qurilgan she'rlar ham uchraydi. Bu stilistik vosita sababli undalmaningleksik-semantik maydoni ham kengayadi. Turli narsa-buyumlar, turli hodisalar, modda-ma'danlar, mavhum tushunchalar, jonivorlar yoki o'simliklarga murojaat kuzatiladi. Masalan, Sirojiddin Sayyidning "Oybibi momo vidosi" she'rida so'ri, ayvon, choynak, qo'mg'on, ko'rpa, taxmon, sut-qatiq, ayron, hovli-joy so'zlari undalma vazifasida kelgan.

Bu dunyoda keksaydi-ku safarim,

Barobardir endi shom-u saharim.

Ketsam, endi qaytib kelmas xabarim,

Ko'ngillarim bolishlarday bo'sh endi,

So'rilarim, ayvonlarim, xo'sh endi (Sirojiddin Sayyid. "Uyingdagi beshiklar").

Shu kabi shaxsdan boshqa narsalarga murojaat orqali go'zal she'rlar yaratgan shoir Muhammad Yusuf bo'lib, uning ijodida undalma alohida lingvopoetik ahamiyatga ega. Shoir ijodida jayron, erka kiyik, oq qo'chqor kabi jonivorlar nomlari, qiz'g'aldoq, rayhon, yalpiz kabi o'simlik nomlari, ko'k darboza, qora qo'mg'on kabi narsalar, munchoq kabi taqinchoqlar, yigirmanchi asr, yangi yil, aprel kabi vaqt ma'nosini ifodalovchi so'zlar undalma vazifasida kelib, she'r misralarini bog'lovchi, ta'sirchanlikni oshiruvchi vosita vazifasini bajargan:

¹³⁷ Куронов Н., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б.255.

¹³⁸ Каримов С. Бадий услуб ва тилинг ифода воситалари. – Самарканд: СамДУ, 1994. – Б.50.

¹³⁹ Shu manba. – Б.35.

Zor yig'lading buncha ham hayhot,
Menda ham bor sendagi sayyod...
Ey beozor, ey mo'min jonzot,
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?.. (M.Yusuf. "Saylanma").

She'riyat his-tuyg'ular, ichki kechinmalar ifodasi bo'lganligi uchun eng inja tuyg'ulardan muhabbat tuyg'usi shoirlar ijodida alohida ta'riflanadi va qadimiy va hamisha navqiron bu tuyg'u bir qancha: ishq, sevgi, muhabbat kabi so'zlar bilan ifodalanadi. Shoirlar aynan mana shu ma'noni ifodalaydigan so'zlarga murojaat orqali shunday ajoyib, ta'sirchan misralar yaratishadiki, bu o'rinda murojaat birligi, albatta, asosiy vazifa bajaradi:

Muhabbat, ey go'zal izzitirob,
Ey ko'hna dard, ey ko'hna tuyg'u.
Ko'kragimga qo'lingni tirab,
Yuragimni to'kib qo'yding-ku?.. (M.Yusuf. "Saylanma").

Shoirning 2008-yilda nashr etilgan "Biz baxtli bo'lamiz" (T.: Nihol, 2008) to'plamida undalmalar keng qo'llanilganligi, to'plamdan o'rin olgan 160 ta she'ridan 106 tasida undalma borligi, har biri o'ziga lingvopoetik vazifa bajargani fikrimiz isboti hisoblanadi.

She'riyatda narsa-hodisalarga murojaat orqali jamiyatdagi illatlar ochib berilishi mumkin. Masalan, Faxriyorning "Ekologik she'r"ida daryoga murojaat orqali tabiatda oqar suvlarni ifloslanayotgani masalasi ilgari surilgan:

Daryo,
sen zahar ichgansan, xastaxonaga
olib bormoqlikning o'zi bir g'urbat.
Shahar-ku notanish, qishloqda esa
bir xastaxona bor va u ham tirband.

Bu bandda shoir suv hamma narsani tozalashiga ishora qilyapti, lekin suvning o'zi notoza bo'lsa-chi, daryolar ifloslangan bo'lsa, uni qanday tozalash mumkin. Daryoga murojaat orqali shu savollarni shoir insoniyatga beradi. Bu yerda shoir ikkinchi bir muammoni ham aytib ketyapti. Qishloqdagi kichik, imkoniyatlari chegaralangan, shifokori kam, mutaxassisligi o'rta ma'lumotli kadrlardan iborat shifoxona muammosini ham kichik she'rga bir bandga yuklayapti:

Daryo, imtiyozlar guvohnomasi
senda yo'q-ku? Navbat saflari haryoq.
Do'xtirlarga navbatda turib qurib ketmasmisan,
kasalmand daryo! (Faxriyor. "Ayolg'u").

Kechinmaning sababkori, daryoga murojaat orqali shoir o'zini, faqat o'zinigina emas, millatparvarlarni qiynayotgan muammolarni aytmoqchi bo'ladi. Ritorik murojaat orqali javob

topib bo'lmis muammoni tilga oladi. Shahar va qishloqning zidlash orqali ikki xil turmush tarziga ishora qiladi, lekin ikkalasida ham muammolar yetarli ekanligini gapirib o'tirmaydi. Ammo kitobxonning o'zi buni anglaydi. Bu she'rda daryo, shifoxonaga murojaat orqali kelajakka bo'lgan munosabat tasvirlanadi. Chunki bu tariqa hayot kechirish, barcha narsani boy berishga olib kelishini nazarda tutgan holda shoir barchani kinoya orqali ogohlikka da'vat etadi:

Daryo, Seni qandoq cho'ltiramiz,

Qayda yuvinarsan, bo'lg'anchiq daryo?

Hammomga olib borayinmikin,

Qaynoq suvdan qo'rqarmisan yo? (Faxriyor. "Ayolg'u", 17).

She'rlarda undalma yoyiq tarzda yoki uyushiq holda kelishi mumkin:

Ey, sen, xotiralar – dardim, jununim –

Ho'l o'tinim, quruq o'tinim

Sizni uzoqlarga olib ketaman (Mirzo Kenjabek. "Munojot", 5).

Ba'zan murakkab undalma bir necha misralarda kelishi mumkin. Iqbol Mirzoning "Bilgim kelar" she'ri ana shunday murakkab undalmalar asosiga qurilgan she'r bo'lib, lirik qahramon sahroga, samoga, daryoga, dunyoga murojaat etish orqali ham o'z dardi, kechinmalarini bayon etmoqda, ham mana shu sahro, daryo, samo, dunyoning xislatlarini bayon etmoqda.

Ey bilib turgan dunyo, ey kulib turgan dunyo,

Shamollardan qamishdek bukilib turgan dunyo,

Ko'nglida yuki borga yukinib turgan dunyo,

Dunyo, mening alamim kimniki, bilgim kelar (Iqbol Mirzo. "Sizni kuylayman", 80).

Bundan ko'rinadiki, undalma shoirlar uchun his-tuyg'ularni ifodalashda qulay vosita hisoblanadi.

She'riyatda undalma takrori juda ko'p uchraydi va bu ta'kidni kuchaytirish maqsadida ishlatiladi:

Sizni sog'inyapman, ko'zim qaroqlari,

Hamqishloqlarim!

Sizga sig'inyapman, ko'nglim chiroqlari,

Hamqishloqlarim (Xudoyberdiyeva H. "Saylanma", 64).

Har gap o'tsa mendan o'tdi, sizda gunoh yo'q, begim,

O'zim sizni otdim, yo rab, so'zdan yasab o'q, begim.

O'yladimki, Sizning bu ishq kulday so'nib to'zgandir,

Bugun nechun yuragimda lahcha-lahcha cho'g', begim (Xudoyberdiyeva H. "Saylanma", 68).

Xullas, undalma she'riyatda emotsional-ekspressivlikni hosil qiluvchi birlik, lirik qahramonning tinglovchiga xitobi, ba'zi janrlarning qat'iy shakliy belgilaridan biri, shoir maqsadini amalga oshirish, lirik qahramonning subyektiv munosabatini ifodalash, vazn va qofiyani ta'minlash kabi bir qancha vazifalarni bajaradi. She'riy matnlarda undalma murojaat qilinayotgan obyektni ko'rsatish barobarida uni tavsiflaydi. Bunday tavsiflovchi undalmalar badiiy fikr sig'imining yanada kengayishi uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акбарова З. Мурожаатнинг моҳияти// Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. - №3. –Б.89-92.
2. Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2008. –26 б.
3. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарқанд: Зарафшон нашриёти, 1992. –Б.34.
5. Мирзо Кенжабек. Муножот. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
6. Муҳаммад Юсуф. Сайланма. –Тошкент: Шарқ, 2007.
7. Сайфуллаев А.Р. Ҳозирги ўзбек тилида ундalma. – Тошкент: Фан, 1968. –74 б.
8. Сирожиддин Саййид. Уйингдаги бешиклар. –Тошкент: Ёзувчи, 1996.
9. Faxriyov. Ayolg'u. – Toshkent: Sharq, 2000.
10. Худойбердиева Ҳ. Сайланма. –Тошкент: Шарқ, 2000.